



The role of non-profit organizations in the development of society

Asadbek Tukhtasinov¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2025

Received in revised form
15 June 2025

Accepted 25 June 2025

Available online
15 July 2025

Keywords:

legal entity, press
cooperative, public
associations, public funds,
municipal institutions,
private institutions,
associations of legal entities,
self-government bodies of
citizens, non-profit
organization.

ABSTRACT

The role of non-profit organizations in the context of reforms in our country is important today. The main focus of this goal is to improve the activities of NGOs from a legal point of view, as well as providing ideas, suggestions and recommendations for filling legal gaps in the current Civil Code of the Republic of Uzbekistan and a number of other relevant legislative acts.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss6/S-pp77-82>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Notijorat tashkilotlarining jamiyat rivojida oʻrni

АННОТАЦИЯ

Калит сўзлар:

yuridik shaxs, matlubot
kooperativi, jamoat
birlashmalari, jamoat
fondlari, munitsipal
muassasalar, xususiy
muassasalar, yuridik shaxs
birlashmalari, fuqarolarning
oʻzini oʻzi boshqarish
organlari, notijorat tashkilot

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar sharoitida notijorat tashkilotlarining tutgan oʻrni muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsad yoʻlida qaratiladigan asosiy eʼtibor bu NNTlar faoliyatini qonun nuqtayi nazaridan takomillashtirish boʻlib, hozirda amalda boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda ushbu sohaga oid boshqa qator qonun hujjatlaridagi huquqiy boʻshliqlarni toʻldirish toʻgʻrisidagi fikrlar, taklif va tavsiyalar berilgan.

¹ 2nd year student of the jurisprudence department of Fergana State University

Роль некоммерческих организаций в развитии общества

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

юридическое лицо, пресс-кооператив, общественные объединения, общественные фонды, муниципальные учреждения, частные учреждения, объединения юридических лиц, органы самоуправления граждан, некоммерческая организация

Роль некоммерческих организаций в контексте реформ в нашей стране сегодня важна. Основной направленностью данной цели является совершенствование деятельности НПО с правовой точки зрения, а также предоставление идей, предложений и рекомендаций по восполнению правовых пробелов в действующем Гражданском кодексе Республики Узбекистан и ряде других соответствующих законодательных актов.

Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlantirishning barcha sohalarini rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Harakatlar strategiyasi, mazmunan, mamlakatimizning va jamiyatimizning maqsadli yo'naltirilgan ustuvor rivojlanishini tezlashtirishga undaydigan yaqin besh yillik islohotlarning "yo'l xaritasi" bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar va boshqa bir qator Prezidentimiz farmonlari, qarorlari va Hukumat qarorlari qabul qilindi. Umuman, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomi, roli va ahamiyatini kuchaytirishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ularning soni ham yildan-yilga oshib bormoqda.

Harakatlar strategiyasi doirasida "uchinchi sektor"ni yanada rivojlantirish va har tomonlama ko'mak ko'rsatish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. O'tgan davr mobaynida bir qator fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini takomillashtirish borasida choralar ko'rildi. Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida jamoat tashkilotlarining bir qator yangi nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish va qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi takliflari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti (FJSHMQMI), "Mahalla", "Nuroni" jamg'armalari, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, O'zbekiston yoshlar harakati, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, "Ezgu maqsad" jamg'armasi, Madaniyat vazirligi qoshidagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi shular jumlasidandir.

Bugungi kunda xalqaro notijorat tashkilotlar ham o'z faoliyatini ko'rsatmoqda. Jumladan, «Buyuk kelajak» xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Tashkilot tomonidan xorijda yashab-faoliyat yuritayotgan o'z kasbining yetuk mutaxassislari bo'lgan o'zbekistonlik vatandoshlar ishtirokida ekspertlik kengashi tuzilgani haqida xabar berilgan edi.

«Buyuk kelajak» xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha yangi takliflar taqdim etishni maqsad qilib qo'ygan.

Jumladan, 2021-yilga qadar qabul qilingan Harakatlar strategiyasi doirasida «Taraqqiyot strategiyasi» markazi bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi. Shu bilan birga hamkorlikda turli soha mutaxassislaridan iborat ekspertlar kengashi a'zolarini faol jalb qilish orqali kelgusi yillar uchun ishlab chiqiladigan Davlat dasturlariga takliflar taqdim etib boradi. Tashkilotning asosiy maqsadi sifatida O'zbekistonni yanada jadal rivojlanishi uchun xizmat qiladigan uzoq muddatli taklif va strategiyalar ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi 575 nodavlat notijorat tashkilot sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi yirik fuqarolik jamiyati instituti ekanligining o'zi Davlat dasturiga jalb etilgan NNTlar doirasi kengayishiga katta turtki berganligini alohida ta'kidlash zarur.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning bozor xo'jalik shakliga o'tilishi jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar ro'y berishiga zamin yaratishi bilan birga, yuridik shaxslarning alohida turi bo'lgan va ko'plab tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etiladigan notijorat tashkilotlaridan samarali foydalanishning huquqiy shakllariga yangicha munosabatda bo'lish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Asosan notijorat tushdagi vazifalarni amalga oshirishi bilan birga, mulkiy munosabatlarning ham faol ishtirokchisi hisoblangan notijorat tashkilotlarining fuqarolik muomalasiga keng jalb etilishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mazkur subyektlari huquqiy maqomini, ular faoliyatining mulkiy asoslarini yangicha baholashni talab etadi.

Ta'kidlash lozimki, notijorat tashkilotlari va ularning alohida tashkiliy-huquqiy shakllari yuridik shaxslarning nisbatan keng tarqalgan turlari bo'lib, davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni haqli ravishda ta'kidlab o'tgan edi: fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda[1].

Darhaqiqat, notijorat tashkilotlari davlatga qarashli bo'lishi bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida ham tashkil etilishi mumkin. Shu sababli ham notijorat tashkilotlarining yuridik shaxs sifatidagi huquqiy maqomini aniqlash va davlat hamda nodavlat tashkiloti sifatida ularga mol-mulkiga ega bo'lish hamda ulardan fuqarolik muomalasida foydalanishga nisbatan dualistik (ikki yoqlamalik) holatini birlashtiruvchi umumiy jihatlarni yoritish muhimdir.

Qolaversa, yuridik shaxs sifatida notijorat tashkilotlarining turlari rang-barangligi, ularning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtiroki turli qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi ham bugungi kunda o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Yuridik shaxs sifatida notijorat tashkilotlarining mol-mulkka ega bo'lishga oid qoidalar FKda belgilangan. Biroq mazkur kodeksda notijorat tashkilotlarining huquqiy layoqati, ularning mol-mulkiga oid qoidalar juda kam bo'lib, asosan davlatga tegishli notijorat tashkilotlari, jumladan, muassasalarning huquqiy maqomi bilan bog'liqdir. Shu bois FKda notijorat tashkilotlarining huquqiy layoqati va ularning alohida turlariga xos bo'lgan umumiy qoidalarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Ko'p hollarda notijorat tashkilotlari, masalan muassasalar mulkdor tomonidan tashkil etiladigan va boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat

bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan yuridik shaxs sifatida davlat va jamiyat hayotida katta o'rin tutadi. Muassasalar faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilmasdan, ular tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari va shu orqali muayyan daromad ko'rishlari mumkin. Shu bois muassasalarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlariga oid normalarni takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi qonunchilikda muassasalarning qaysi mulk shakli asosida tashkil etilishi borasida muayyan qoidalar nazarda tutilmagan. Bu esa o'z navbatida muayyan turdagi ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida mulkdor tomonidan tashkil etilgan va moliyalashtiriladigan yuridik shaxsni muassasa sifatida e'tirof etishi va uning huquqiy maqomini belgilashda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli qonunchilikda muassasalar ayni paytda davlat va xususiy shaxslar tomonidan ham tashkil etilishi mumkinligi qoidalarni nazarda tutish zarur.

FKda muassasalar mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot sifatida belgilangani holda, moliyaviy ta'minlashning eng kam miqdori va uning muddatlari belgilanmagan.

Bugungi kunda muassasaning mulkiy javobgarligi turlicha tartibga solinmoqda. Ta'kidlash lozimki, huquqni qo'llash va sud amaliyotida aynan muassasaning pul mablag'lariga undiruv qaratish holatlari bilan to'qnashish holatlari mavjud. Bunda muassasaning boshqa mol-mulkiga nisbatan undiruv qaratilishi mumkin emas.

Ushbu holatda RF Oliy Arbitraj sudining 2006-yil 22-iyundagi 21-sonli Plenum qarori hamda 1999-yil 14-iyuldagi 45-sonli axborot xati mavjud bo'lib, RF GK belgilangan muassasa mol-mulkiga undiruv qaratishga oid tushuntirishlarni ifodalaydi[2].

Budjet muassasalari javobgarligining chegarasi mol-mulkning turli kategoriyalari bilan belgilanadi va uning o'ziga xosligi pul mablag'lariga undiruv qaratishda ko'rinadi. Xususiy va budjet muassasalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligidan farqli ravishda budjet muassasalarining subsidiya javobgarligini nazarda tutmaydi. Biroq, bu o'rinda pul mablag'lariga undiruvni qaratishda o'xshashlik mavjud. Subsidiya javobgarlikning mavjud emasligi kreditorlar talablari qarzdorning mol-mulki mavjud bo'lmasa yoki yetarli bo'lmasligi holatlarida huquqiy mavhumlikni keltirib chiqaradi. Ayrim tadqiqotchilar buning yechimi sifatida muassasaning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirishni taklif qiladi[3]. Biroq, bunday yondashuvni boshqa tadqiqotchilar bahsli ekanligini qayd qilishadi[4].

Davlat muassasasining mustaqil mulkiy javobgarligi haqidagi mavjud qoidalar kreditorlar manfaatlarini yetarlicha qanoatlantirmaydi. Ayrim hollarda "foydali muassasalar"ni tashkil etish diksiyadek bo'lib tuyuladi. Chunki muassasa faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilganligi ularning foyda olish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

Muassasaning barcha pul mablag'lari uning mol-mulkini saqlanishi uchun sarflanadi. Bundan tashqari RF GKda alohida qiymatga ega bo'lgan mol-mulkka undiruvni qaratishni ta'qiqlaydi. Bundan kelib chiqadiki, kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun pul mablag'lari yana qolishi dargumon, shuningdek qolgan mol-mulk hamda "alohida qiymatga ega" mol-mulkka nisbatan jozibadorligi bo'lmaydi[5].

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning 28-moddasida ko'rsatilishicha, nodavlat notijorat tashkiloti o'z majburiyatlari yuzasidan qonunlarga muvofiq undirish qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulki bilan javob beradi. Biroq, bu o'rinda notijorat tashkilotining qanday mol-mulki ushbu toifaga kirishi masalasi ochiq qolib ketgan. Bu borada RF "Notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi va

“Avtonom muassasalar to‘g‘risida”gi qonunlarida muayyan talablar belgilangan bo‘lib, bunday mol-mulk turlari davlat hokimiyati organi yoki ma‘muriyati tomonidan aniqlanadi. Bunday mol-mulkning ro‘yxati muassis funksiyalari va vakolatlarini amalga oshiruvchi tegishli organlar tomonidan belgilanadi. Shuningdek, RF Hukumatining 2010-yil 26-iyuldagi 538-son qarori bilan tasdiqlangan “Avtonom yoki budjet muassasasi mol-mulkini alohida qiymatga ega deb topish tartibi”da quyidagi mezonlar belgilangan:

1) federal, avtonom va budjet muassasalari 200 ming rubldan 500 ming rublgacha bo‘lganda, RF subyektlari 50 ming rubldan 500 ming rublgacha bo‘lganda, munitsipal muassasalar uchun 50 mingdan 200 ming rublgacha bo‘lganda;

2) boshqa mol-mulk, agar uning olib qo‘yilishi ustavga muvofiq o‘z oldiga qo‘ygan ustav maqsadlarni amalga oshira olmaydigan ahvolga tushishiga olib kelsa;

3) begonalashtirilishi qonun hujjatlariga muvofiq alohida tartibni talab qiluvchi mol-mulk, shu jumladan, muzey kolleksiyalari va predmetlari, muzey fondi, arxiv fondi hujjatlari va h.k.

O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasiga muvofiq, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o‘rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi hisoblanadi. Bu o‘rinda qonun chiqaruvchi muzeyni muassasa tashkiliy-huquqiy shaklidagi notijorat tashkilotlar qatoriga kiritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-apreldagi 68-son qarori bilan tasdiqlangan Muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 19-bandiga ko‘ra muzeylarning moddiy-texnika bazasini zarur imoratlar, kommunikatsiyalar, jihozlar, muzeylar fondini muzey ashyolari va kolleksiyalari bilan boyitish, ularni saqlash, aniqlash, to‘plash, madaniy, ma‘rifiy, ilmiy va ta‘lim faoliyatini amalga oshirish, o‘rganish, e‘lon qilish sohasidagi boshqa vazifalarni hal etishda foydalaniladigan boshqa mol-mulkdan iborat bo‘ladi.

Fikrimizcha, bunday mezonlar qo‘yilishi maqsadga muvofiq emas. Chunki mazkur mezonlar amalda undiruvni muassasa mol-mulkiga qaratishni mumkin bo‘lmasligiga olib keladi. Chunki, muayyan miqdorda hatto 50 ming rubl yoki undan ortiq miqdordagi pul mablag‘i tabiiyki, odatda barcha muassasalarda bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga ayrim muassasalarda shunday mol-mulklar mavjud bo‘ladiki, ularni begonalashtirish muassasaning funksional vazifalarni bajarishiga imkon bermaydi. Masalan, transport vositalari, maxsus asbob-uskunalar, jihozlar, intellektual mulk obyektlari va h.k.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 40-moddasi uchinchi qismida tijoratchi tashkilot bo‘lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta‘minlab turiladigan muassasa shaklida tashkil etilishi mumkinligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlarga bag‘ishlangan 3 paragraf, 73-moddasi matlubot kooperativi, 74-modda jamoat birlashmalari, 75-modda jamoat fondlari tarzida ifodalangan. Vaholanki, FKga 2004-yil 30-aprelda kiritilgan o‘zgartirish alohida moddalarda to‘g‘ri ifodalangan holda, 40-modda uchinchi qismi eski tahrirda ya‘ni, ijtimoiy fond shaklida qolib ketgan. Ushbu kamchilik e‘tibordan chetda qolib ketgan va bartaraf etish zarurati yuzaga kelgan.

Shu bilan birga notijorat tashkilotlarning turlari va qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishiga doir alohida qoidalar FKda belgilanmagan.

Shu munosabat bilan FKda notijorat tashkilotlarining ro‘yxatini va ularning turlarini belgilashdan oldin notijorat tashkilotlarning umumiy qoidalarini belgilash maqsadga

muvofiqdir. Bunday amaliyot bir qator xorijiy mamlakatlar qonunchiligida qo'llaniladi. Xususan, RF Grajdanlik kodeksida alohida paragrafda ya'ni, 1231-12316-moddaga qadar notijorat tashkilotlarga bag'ishlangan.

Fuqarolik kodeksining muassasalarga bag'ishlangan qoidalari juda mavhum ifodalangan bo'lib, bunda muassasalar qaysi mulk shakllarida tashkil etilishi agar bir vaqtning o'zida muassasa yoki xususiy mulk ko'rinishida tashkil etilganda ularning maqomi borasidagi qoidalarni belgilamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 45 b
2. Postanovleniye Plenuma Visshego Arbitrajnogo Suda RF ot 22.06.2006 № 21 (red. ot 19.04.2007) «O nekotoryx voprosax praktiki rassmotreniya arbitrajnimi sudami sporov s uchastiyem gosudarstvennix i munitsipalnix uchrejdenny, svyazannix s primeneniye staty 120 Grajdanskogo kodeksa Rossiyskoy Federatsii» // Vestnik VAS RF. 2006. № 8.; Informatsionnoye pismo Prezidiuma Visshego Arbitrajnogo Suda RF ot 14.07.1999 № 45 «Ob obrashenii vziskaniya na imushestvo uchrejdeniya» // Vestnik VAS RF. 1999. № 11.
3. Matveyev V. Y. Grajdansko-pravovoy status uchrejdenny po zakonodatelstvu Rossiyskoy Federatsii na sovremennom etape : avtoref. dis. ... kand.yur. nauk. M., 2013.24-25 s.
4. Сюбарева И.Ф. Правовое регулирование гражданско-правовой ответственности учреждений. // Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. 2013. Вып. 9. С. 55.
5. Бакин А.С. Субсидиарная ответственность собственника имущества учреждения по законодательству РФ. // Вестник томского государственного университета, 2012, №4(6), -84 б.